

**O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATI: TARIXIY TARAQQIYOT VA
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR**

Guliston Davlat universiteti

Sanatshunoslik fakulteti oqiyuvchisi Qarshiboyeva Dilafruz

Guliston Davlat universiteti Rangtasvir yonalishi oquvchisi

Boqiyeva Tahmina

Annotatsiya: *Ushbu maqolani yoritilish jarayonida O'zbekiston tasviriy san'ati: tarixiy taraqqiyot va zamonaviy tendensiyalar shularga a'lohida e'tibor berib ketildiki, tasviriy san'at va uning rivojlanishi yo'lida shu kungacha ko'plab rassomlar va ijodkorlar yetishib chiqishgan va o'zlarining ijodlari bilan bo'lishib kelishmoqda. Maqolada asosan O'rta Osiyo me'morchiligidagi tasviriy va amaliy san'at, xattotlik hamda me'morchilik namunalarining uyg'onish davridagi nisbatlari solishtirib taxlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Kasb, hunar, mehnat, mutafakkir, xattotlik, miniatyura, me'morlik, gumbaz, koshin, kulolchilik, olim, ganj, rizq, qaram, ehtiyoj, moddiy, meros.*

O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilmoqdalar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar.¹ Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va



haykaltaroshlarni yetkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiyeu, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboyev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat Hakimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullayev, G'ofur Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzayev rangtasvir ustasi xalqimiz an'analarga, boy va sarmazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom onatibiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lohar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi.

Vatanimiz o'tgan qisqa vaqt mobaynida ulkan yutuqlarga erishdi. Sog'lom, osoyishta ijtimoiy muhit, siyosiy barqarorlik vujudga kelib, fuqarolarimizga o'z qobiliyat va iste'dodlarini namoyon qilish, bunyodkorlik bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

—Keyingi davrlarda Vatanimiz tarixini xolisona o'rganish, targ'ib qilish yuzasidan tarixchi olimlarimiz tomonidan talaygina ilmiy yangiliklar qo'lga kiritilib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Ko'plab tarixiy jarayonlar, shaxslar tarixi yangidan o'rganilib, xolis baho berilgan holda taqdim etilmoqda. Hali oldinda talaygina ishlar turibdi. Bu birinchi galda o'tmishimizni allomalarimiz qoldirib ketgan birlamchi manbalarga tayangan holda sinchiklab o'rganib, hech qanday bo'yoq va soxtalashtirishlarsiz xalqimizga yetkazishdan iboratdir. Kimlardir yozib bergan yoki ularning g'oyaviy ta'sirlari ostida taxminlarga tayanib yozilgan tarixlardan voz kechish payti keldi. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy kiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etnik g'oyalari ham tasviriy san'atning mazmuniga



aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashiga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muxim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzu umidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumgoyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichidayoq inson o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlarni yaratish, libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marxumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marxumlar qabriga turli buyumlar ko'yish odatlarida tasviriy san'atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak, keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, gor devorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o'y-xayollari, o'zga dunyo to'g'risidagi tasavvurlari mujassamlashgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi hamda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralishi tasviriy san'at rivojida muhim o'rinni egallaydi. Tasviriy san'at inson faoliyatining ma'lum sohasiga aylanib davr ruhiyati, uning siyosiy, ma'naviy va nihoyat estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbaga aylandi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan Qadimgi Misrda tasviriy san'at insonning dunyo, borliq to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini, xudolar darajasiga ko'tarilgan fir'avnlarni ulug'lash quroliga aylandi. Yunonistonda tasviriy san'at jamiyatning erkin fuqarosiga qaratilgan va antik mifologiyaning g'oyalarini plastik moddiylashtirilgan ko'rinishida kamol topdi, Qadimgi Rim realizmida murakkab inson jismi namoyon bo'ddi. Insoniyat sivilizatsiyasining muhim o'choqlaridan hisoblangan O'rta Osiyo, uning ajralmas qismi O'zbekiston hududida ham tasviriy san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi nozik o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Zarautsoy rasmlari, Xorazm, Sug'd, Baqtriya mahobatli haykal va rangtasvirlari shuning dalilidir.



O'rta asrlar tasviriy san'ati uslub jihatidan rangbarang, turlari keng va xilma xil, bu davrda mahobatli haykaltaroshlikning nodir namunalari yuzaga keldi. «O'zbek xalqining madaniy merosi ming yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O'zbekiston hududida e'tiqod qilingan zardushtiylik, buddizm, islom va boshqa dinlar yaratgan ma'naviy–axloqiy qadriyatlar mujassamlashgan. Unda butun dunyoga mashhur Imom Al-Buxoriy, At-Termiziy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mashrab kabi buyuk mutafakkirlarning bilim va salohiyati gavdalangan. Bu merosda Amir Temur va Boburlarning davlatchilik va siyosiy qurilish tajribalari, buyuk me'morchilik yodgorliklari, tasviriy san'at, musiqa, amaliy san'at asarlari, xalq urf-odatlar va an'analari uyg'unlashgan». Me'moriy bezaklar tipologiyasi, qadimgi davr va ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyo me'moriy bezaklari ayniqsa, ilk islom uyg'onish davridagi tirik mavjudotlarni tasvirlashni taqiqlovchi Islom qonuniyati me'morchilik, xattotlik va bezak kabi sohalarning rivojlanishiga turtki berdi. Ushbu san'at turlari predmetning shaklini rad etib, uning maqsad va mohiyatiga qaratilgan. Albatta Matematikada bo'lgani kabi, geometrik-xandasaviy bezak sohasida ham Islom taraqqiyoti qadimiy an'analarni meros qilib olgan xolda, Islomiy geometrik bezakning eng qadimgi rivojlangan Italiya, Fors naqshlari kabi shakli-tuzilishi jixatidan deyarli farq qilmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Xakimov A.A. Iskusstvo Uzbekistana: istoriya i sovremennost. -Tashkent: Izdatelstvo jurnala «San'at», 2010. - 504 s.
2. Sulaymonov A., Abdullayev N., Sulaymonova Z. Tasviriy san'at. 7-sinf uchun darslik. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017. - 80 b.
3. Shavdirov, S. A. (2017). Podgotovka budushix uchiteley k issledovatel'skoy deyatel'nosti. Pedagogicheskoye obrazovaniye i nauka, (2), 109-110.